

PEDAGOGIK MAHORAT

MS

2021



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

**MAXSUS SON
(2021-yil, dekabr)**

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

Nodirabegim RAJABOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli	128
Yusufzoda Shabnam. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	132
Mardon YARASHOV. Boshlang'ich ta'limning dars jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish vositalari.....	135
Dilora SIDIQOVA. Masofaviy ta'lim sharoitida "matematika o'qitish metodikasi" fanini o'rgatishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning metodik asosi	138
O'g'iljon OLLOQOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik kompetensiyalarni takomillashtirish..	142
Umida TOG'AYEVA. Loyihaviy ta'lim vositasida "ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish yo'llari.....	146
Gavhar RUSTAMOVA. O'zbek xalq ertaklarida daraxtlar obrazi bilan bog'liq epik talqinlar	150
Feruza ABDULLAYEVA. Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	154
Feruza ABDULLAYEVA. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli.....	156
Dilnoza XAYRULLAYEVA. 4-sinf ona tili darslarida gap bo'laklarining o'qitilishi	159
Mohichehra IBROHIMOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarini o'tishda "day game"dan foydalanish	163
Mahliyo HAYDARQULOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiyadan foydalanishning o'RNI.....	166
Madina OZODOVA. Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari	170
Nigora RO'ZIYEVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ulush va kasr tushunchalariga doir masalalarni tushuntirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	172
Shahlo SAPAROVA. The classification of Elbek poems in 5 directions	175
"Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari	178

BOSHLANG'ICH TA'LIMNING DARS JARAYONLARIGA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH VOSITALARI

Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, bu jarayondagi samarali vositalar haqida so'z yuritilgan. Undan tashqari ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning turli ko'rinishlarini joriy etish hamda bu texnologiyalarni qo'llash jarayonidagi qulayliklar aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiya, onlayn, ta'lim, jarayon, matn, animatsiya, ta'lim vositalari, ta'lim jarayoni, axborot, taqdimot.*

В статье рассматриваются изменения в системе образования, эффективные инструменты в этом процессе. Кроме того, отмечалось внедрение различных форм цифровых технологий в учебный процесс, а также удобство применения этих технологий.

Ключевые слова: *цифровые технологии, онлайн, обучение, процесс, текст, анимация, учебные пособия, учебный процесс, информация, презентация.*

In this article we will talk about the changes in the educational system, the effective tools in this process. In addition, the process of introducing various forms of digital technologies into the educational process, as well as the convenience of the process of applying these technologies were mentioned.

Key words: *digital technology, online, education, process, text, animation, educational tools, educational process, information, presentation.*

Kirish. Shiddat bilan rivojlanayotgan asrimizda axborot texnologiyalarining o'rni juda muhimdir. Zero asrimiz axborot texnologiyalari asri bo'lib, ayniqsa, ta'lim tizimida beqiyos o'zgarishlar yuz bermoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida aytganlaridek: "Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak" [1]. Haqiqatdan ham biz ta'lim sifatini yaxshilasak, yaqin kelajakda bu o'z samarasini beradi. Buning uchun turli metod, uslub va vositalardan foydalanish mumkin. Milliy mentalitetimizdan uzoqlashmagan holda o'zimizning ta'lim berish jarayonimizni takomillashtirishimiz lozim. Buning zaruriy shartlaridan biri ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda dars jarayonlarida ulardan foydalanishdir.

Ta'limning modernizatsiyalashuvi uzluksiz ta'lim taraqqiyoti va shaxsning kasbiy faoliyati yetukligi, axloqiy barkamolligi, kasbiy psixologik xususiyatlarining shakllanishi masalalari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.

Asosiy qism. O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi yuksalishi haqida so'z borar ekan, amerikalik psixolog Dj.Bruner shunday yozadi: "Biz fanlarni dunyoga kichik jonli kutubxonalarni keltirish uchun emas, balki o'quvchining o'zini matematik fikrlash, muammolarni tarixchi misoli o'rganish, bilim olishda ishtirok etishga o'rgatish uchun o'qitamiz. Bilish – bu jarayon, mahsul emas". Shunday ekan ta'lim berishdagi muhim omillardan biri bu jarayondir. Ushbu jarayonni to'g'ri, samarali, sermazmun hamda qiziqarli tashkil etish pedagogdan katta mahorat va fidoiylik talab etadi.

Ta'lim - bilim berish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda qo'llay olish, o'quvchilarni hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun asosiy vosita sanaladi. Ta'lim jarayoni belgilangan maqsadga erishish va o'quvchilar shaxsining individual sifatlarini o'zgartirishga olib borishga qaratilgan o'quvchi va o'qituvchilarning o'zaro munosabatlari majmuyi hisoblanadi.

Jarayon - holatning ketma-ket aniq o'zgarishi, biror narsaning rivojlanish yo'nalishini anglatadi hamda natijaga erishish uchun ma'lum ketma-ket harakatlarning algoritmidir.

Ta'lim jarayonini tashkil etuvchi elementlarga quyidagilar kiradi: o'quv maqsadi, aniq maqsadlar, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ta'lim mazmuni, ta'lim metodi, ta'lim shakli, ta'lim vositalari, nazorat va baholash.

Ta'lim jarayonida yaxshi natijaga erishish uchun yuqoridagi elementlarni barchamu muhim o'rin tutadi. Bulardan biri bu ta'lim vositalaridir. Yosh avlodga ta'lim berishda ta'lim vositalarining o'rni juda muhimdir. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarni ta'limning asosiy vositasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki texnika rivojlangan bu davrda ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish mumkin

emas. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning shakllanishiga yordam berish bilan bir qatorda o'qituvchining ish faoliyatiga ham yengillik kiritadi.

Boshlang'ich sinflarga multimediali darslarni joriy etilishi har jihatdan foydali hisoblanadi. Ushbu multimedialarda o'quvchining dars jarayoniga qiziqtirish uchun quyidagilar asosiy vositadir:

- matn;
- grafika;
- animatsiya;
- ovoz;
- video.

Matn va grafika multimedia tizimlarining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Grafiklarsiz matn insonning diqqatini jalb qilmaydi hamda uzoq muddat xotirasida saqlab qola olmaydi. Demakki, grafikli hamda rangli matnlar o'quvchi xotirasida yaxshi saqlanib qoladi. Rang matn va rasmning muhim tarkibiy qismidir. Inson ko'zi yorug'lik intensivligiga va uchta rangga qizil, yashil va ko'k rangga ta'sirchanligini hisobga olgan holda matn shriftlari va o'lchamlari kabi, rang tarkibini tanlash bevosita estetik ta'sirga ega. Bu esa o'z navbatida tanlangan ma'lumotni o'quvchiga yetkazishda hamda uning xotirasida saqlanishida asosiy dastakdir.

Taqdimotga ta'sir ko'rsatadigan yana bir muhim vosita animatsiyadir. Matn va grafikadan farqli o'laroq, bu ma'lum vaqtga asoslangan mediadir. Animatsiyaning ko'rgazmali ta'siri o'quv jarayonining har bir bosqichida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Animatsiyalar odatda ekran bo'ylab bir obyekt harakati kabi shakllarini olishi, obyekt foydalanuvchi nazorat harakati, qiyshiq va to'liq animatsiya fayllardan iborat bo'ladi. Bunday obyektlarni yaratish uchun avtorizatsiya vositalaridan foydalaniladi.

Og'zaki muloqotning barcha shakllarida tovushdan foydalanadi. Texnologiya butun koinot bo'ylab tovush uzatish uchun ishlatilgan. O'qituvchining ovozi o'quvchilarga bilim berishda va ma'lumotlarni yetkazishda asosiy vosita sanaladi. Multimedia tizimi nutq, musiqa yoki maxsus tovush effektlaridan foydalanishni talab etadi. Ta'lim uchun foydalaniladigan nutq qisqa va ommaviy axborot vositalari bilan integratsiyalashgan bo'lishi lozim. Ovozli effektlardan matnga qo'shimcha sifatida foydalanish kerak.

Muhokamar va natijalar. Ta'lim berish jarayonida berilayotgan axborotlarni ishonarli bo'lishi yoki mavhum tushunchalarni tasavvur qilishlari uchun video fayllardan foydalaniladi. Bundan tashqari dars jarayonida o'tkaziladigan quvnoq daqiqalardagi harakatlarni namoyish qilinishi, matematika darslarida yechiladigan masalalarning matnini yaxshiroq anglashlari uchun ularni video orqali namoyish qilish yuqori samara beradi. Negaki matnda tasvirlangan holatlarni ekranda harakatlar yordamida aks ettirish, ya'ni video fayl orqali namoyish etish tushunish va anglash jarayonini tezlashtiradi.

Barchaga ayonki, hozirgi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'plab sohalarda asosiy talab hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sohasi uchun ham muhim sanaladi. Endi raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchilar materiallarni yanada samarali taqdim etishlari mumkin, shuning uchun o'qitish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayib ta'lim sifati ham oshmoqda.

Bugungi kunda o'qituvchilar butun dunyodagi hamkasblar, boshqa institutlar va maktablar bilan muloqot qilishlari mumkin. Ularda veb-seminarlar, video konferensiyalar, onlayn suhbatlarda ishtirok etish imkoni mavjud. Ta'limdagi raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim muhitini tashkil etishning bir usuli hisoblanadi. Kundalik hayotimizda raqamli texnologiyalar katta tezlik bilan rivojlanmoqda. Ko'plab sohalarning ish faoliyati raqamli tizimlarga o'tmoqda: shifoxonalar, umumiy ovqatlanish muassasalari, ta'lim muassasalari vahokazo. Mutaxassislar maktab dasturini elektron shaklga o'tkazish haqida tobora ko'proq ishlarni amalga oshirmoqda. Ushbu g'oyani amalga oshirish jarayonida nafaqat ta'lim tizimi, balki uning ma'nosi va maqsadi ham o'zgarib boradi.

Ushbu globallashtirish asrida ta'lim tizimimiz raqamli ko'rinishga o'tishi bilan internetdan foydalanish hajmi ham ortadi. Chunki ta'lim platformalaridagi materiallarni o'rganishlari, topshiriqlarni bajarishlari hamda kerakli ma'lumotlarni izlab topishlari ayni shu internet aloqasi bilan bog'liq.

Maktab ta'limining zamonaviy shakli va mazmuni oldingi ta'lim tizimidan tubdan farq qiladi. Ta'limni raqamlashtirish - bu elektron tizimga o'tish jarayonining nomlanishi. Ayni paytda kelajakdagi o'zgarishlar haqida batafsil gapirish mushkul, biroq hozir biz mana shu xato va kamchiliklarni tuzatishimiz hamda o'zgartirishimiz mumkin. Yaqin kelajakda o'quv materiallari, rejalar, sinflar jurnallari - bularning barchasi onlayn ko'rinishlarga o'tadi. Hozirgi kunda ham bilim olish uchun ko'pgina onlayn platform va dasturlar yaratilgan. Bular yordamida o'quvchilar uydan chiqmasdan, internetdan foydalangan holda darslarni o'zlashtirishlari hamda onlayn olimpiada va testlar orqali bilimlarini sinash imkoniyatiga egalar.

Bugungi kunda maktablar zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda. Har bir ta'lim muassasasida axborot tizimiga kirish uchun kompyuterlar, elektron doskalar bilan bir qatorda optik tolali internet bilan ham ta'minlanmoqda.

Hozirgi davr o'qituvchilar yangilanayotgan va raqamlashtirilayotgan ta'lim tizimini puxta o'rganishlari lozim. Negaki ushbu kasb mohiyati tubdan o'zgaradi. Ta'lim tizimining raqamlashtirilishi

o'quv materiallarini mustaqil o'rganish imkonini beradi. Ushbu jarayonda o'qituvchi yordamchi, yo'naltiruvchi vazifalarini bajaradi. Raqamli texnologiyalar bilan tashkil qilinadiga ta'lim tizimi mustaqil ishlashni nazarda tutganligi sababli, o'quvchilar yoshligidan bilimga intilishi, o'z kuchi, mehnati bilan erishishi kerakligini tushunadi. Ta'lim tizimining bunday raqamlashtirilishi kelajakda o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa. O'qituvchining kasbi eng qiyin kasblardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni tarbiyalash uchun ko'p energiya va kuch sarflanadi. Raqamli tizimda o'qituvchining ishi faqat yo'naltirishni anglatadi. O'qituvchining yo'naltirishi o'quvchilarning rivojlanish yo'nalishini belgilab beradi. O'quvchilar faqatgina muammoli vaziyatlarda unga murojaat qilishadi. Ta'limni raqamlashtirish maktab o'quvchilariga kelajakda axborot dunyosida yaxshiroq harakat qilishiga yordam beradi.

Olimlarning ta'kidlashicha rangli tasvirlar insonning ma'lumotni yaxshiroq eslab qolishiga yordam berar ekan. Bundan tashqari, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. Shunday ekan o'quv materiallarini raqamli texnologiyalar orqali rang-barang tarzda berilishi o'quvchilar qiziqishini orttirishi bilan bir qatorda ma'lumotlarni xotirasida yaxshi saqlab qolish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining oshishiga katta hissa qo'shadi. Zero, ta'lim jarayonidagi har bir o'zgarish va joriy etilayotgan yangiliklardan ko'zlangan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazishdir.

Adabiyotlar

4. Mirziyoyevning Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (28.12.2018-y.).
5. Hamroev A. R. MODELING ACTIVITIES OF TEACHERS WHEN DESIGNING CREATIVE ACTIVITIES OF STUDENTS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 10.
6. КОСИМОВ Ф. М., ЯРАШОВ М. Ж. ТВОРЧЕСКИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ //ИННОВАЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ РАЗВИТИЯ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2020. – С. 178-181.
7. YARASHOV M. BOSHLANG'ICH SINFI MATEMATIKA TA'LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHDA TA'LIM TAMOIYILLARINING O'RNINI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ. – 2020. – Т. 1. – №. 1.
8. Jobirovich, Yarashov Mardon. "Advantages of the Introduction of Digital Technologies into the Educational Process." Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT 7 (2021): 17-20.
9. Yunus Y. S. DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN MATHEMATICS LESSONS AS THE BASIS FOR IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS.
10. YUSUFZODA S. O'QUVCHI MANTIQUIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ. – 2020. – Т. 1. – №. 1.
11. Yunus Y. S. et al. Use of innovative technologies in improving the efficiency of primary school students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11. – №. 1.
12. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 461-465.
13. OLLOQOVA O. ONA TILI TA'LIMIDA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.
14. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 580-587.
15. Abdurakhimovna K. S. Idealistic Study of Proverbs //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 11. – С. 201-202.
16. Rustamova G. B. THE INTERPRETATION OF THE WILLOW IMAGE IN UZBEK FOLKLORE //ЛУЧШАЯ НАУЧНАЯ СТАТЬЯ 2020.– 2020.– С. 53-57.
17. Саидова Г.Э. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКЕ МАТЕМАТИКИ.
18. Adizova N. B. RHYME, RHYTHM IN FUN GENRE //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 10. – С. 65-67.
19. Xoliqulovich J. R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.